

**O‘ZBEKISTON DAVLAT BYUDJETI VA MOLIVAVIY NAZORAT
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI*****Shodiyev Xurshidjon Karimovich****O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston davlat byudjeti va moliyaviy resurslarini boshqarish hamda ularning nazorat tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. 2022–2023 yillarga oid statistik ma’lumotlar asosida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasi, davlat maqsadli jamg‘armalari hajmining o‘zgarishi, tashqi qarz hisobidan moliyalashtirilayotgan dasturlar ko‘lami o‘rganilgan. Shuningdek hozirgi kunda davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirishda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish istiqbollari muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *davlat byudjeti, moliyaviy resurslar, nazorat tizimi, davlat maqsadli jamg‘armalari, fiskal barqarorlik, tashqi qarz, shaffoflik, iqtisodiy rivojlanish, dastlabki moliyaviy nazorat, xarajatlar smetasi, inspeksiya.*

Mamlakat byudjetida markazlashtiriladigan moliyaviy resurslar davlat hokimiyati hamda hududiy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini moliyaviy ta‘minlashning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu mablag‘lar hukumat va mahalliy boshqaruv organlari zimmasidagi vazifalar va funksiyalarning bajarilishini moliyaviy jihatdan kafolatlaydi. Davlat byudjetining barqarorligi esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishi hamda uning ijtimoiy sohasi ahvolining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu bois zamonaviy byudjet tizimini shakllantirish jarayoni iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u byudjet oldidagi asosiy vazifalarni ham belgilab beradi.

Jahon iqtisodiy o‘sishi sur‘atlari pasayib borayotgan murakkab sharoitga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanish tendensiyasini saqlab kelmoqda. 2024-yil Davlat byudjeti prognoziga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish 5,6–5,8 foiz



atrofida bo'lishi kutilmoqda. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich mos ravishda 6,2 foiz (2025-yil) va 6,4 foiz (2026-yil) darajasiga yetishi rejalashtirilgan. 2024-yilda Davlat byudjeti daromadlari 270 703 mlrd so'mga baholanmoqda. Soliq yukining bosqichma-bosqich kamayishi sharoitida soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishi prognoz qilinmoqda. Davlat byudjeti xarajatlari esa 312 921 mlrd so'mni tashkil etib, uning qariyb yarmi – 48,4 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltiriladi. Shuningdek, rivojlantirish dasturlari, barqaror rivojlanish milliy maqsadlari va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tadbirlar uchun ham mablag'lar ko'zda tutilgan.

Fiskal barqarorlikni mustahkamlash maqsadida byudjet taqchilligini kamaytirish o'rta muddatli moliya siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. 2024-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 52,6 trln so'mni yoki YaIMning 4 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Keyingi ikki yilda esa ushbu ko'rsatkichni YaIMga nisbatan 3 foizgacha tushirish maqsad qilingan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda moliyaviy nazorat, mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Har birining alohida tadqiqot predmeti, usullari va qo'llash sohasi mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, aniq axborot taqdim etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat boshqaruvning muhim funksiyasi bo'lib, maxsus kuzatuv va tahlil tizimini ifodalaydi. Uning asosiy vazifasi – mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, o'zgarishlarni aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iborat.


Nazorat subyektlariga Moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik, Hisob palatasi, davlat soliq xizmati organlari va boshqa maxsus moliyaviy institutlar kiradi. Nazorat obyektlari esa moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, xo'jalik subyektlari va tijorat korxonalaridir.

Umuman olganda, moliyaviy nazorat quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Oldindan nazorat** – moliyaviy resurslardan foydalanish rejalashtirilayotgan bosqichda xatoliklarning oldini olish uchun amalga oshiriladi.
2. **Joriy nazorat** – xo'jalik jarayonlari davomida olib borilib, real vaqt rejimida resurslardan oqilona foydalanishni kuzatadi.

3. **Keyingi (yakuniy) nazorat** – ma’lum davr yakunida moliyaviy faoliyat natijalarini baholab, kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy nazorat tizimi davlat moliyasining barqarorligini ta’minlashda, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishda va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, g‘aznachilik organlari orqali nazoratni yo‘lga qo‘yish moliyaviy intizomni kuchaytirib, davlat resurslaridan maqsadli foydalanishga imkon yaratadi.



1-rasm. Nazorat turlari¹

Moliyaviy nazorat tizimi uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: davlat nazorati, idoraviy nazorat va mustaqil audit.

Davlat nazorati – murakkab tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, uni amalga oshiruvchi subyektlar qatoriga Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy bank hamda moliyaviy nazorat vakolatiga ega boshqa davlat organlari kiradi. Bu nazoratning obyektlari esa mulk shaklidan qat’i nazar barcha korxona va tashkilotlarni qamrab oladi.

Idoraviy nazorat – vazirliklar va qo‘mitalar tarkibidagi nazorat-taftish bo‘limlari yoki ichki audit boshqarmalari tomonidan olib boriladi. Bu nazorat turi davlat korxonalari, tashkilotlari hamda ustav kapitalining yarmidan ortig‘i davlatga tegishli bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarini qamrab oladi.

¹ B.K.Hamdamov, A.A.Ostonokulov. “Byudjet nazorati” o‘quv qo‘llanma.- T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. 7-b.


Mustaqil audit – auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi mustaqil auditorlik firmalari va xususiy sektorga oid korxonalar tomonidan olib boriladi.

Davlat moliyasini boshqarishda, xususan davlatning moliyaviy resurslaridan oqilona, samarali va maqsadli foydalanilishini ta'minlash uchun ushbu uch turdagi moliyaviy nazoratdan foydalaniladi.

Budjet ijrosi jarayonida nazorat va tekshiruv obyektlari sifatida moliya organlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlari ishtirok etadi. Ularning nazorat doirasi quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- a) budjet daromadlari va xarajatlari;
- b) budjet mablag'lari va budjet ssudalari;
- c) hisob-kitob mablag'lari hamda aylanma kassa mablag'lari;
- d) budjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari;
- e) moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar;
- f) majburiyatlar va moliyaviy natijalar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, birinchi uchta yo'nalish moliya organlari va davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatiga tegishli bo'lsa, keyingi yo'nalishlar bevosita budjet tashkilotlari faoliyati bilan bog'liqdir.



2-rasm. Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlar ijrosi , trln so'm²

² <https://openbudget.uz>



O'zbekistonning davlat byudjeti va moliyaviy resurslarining samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri 2022–2023 yillarga oid statistik ko'rsatkichlar davlat xarajatlarini nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xususan, 2022-yilda O'zbekiston davlat byudjeti 236,7 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu raqam 281,1 trillion so'mga yetdi. Bu o'sish mamlakat miqyosida ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayayotganidan dalolat beradi.

Davlat maqsadli jamg'armalari hajmi ham o'sib bormoqda: 2022-yilda 38,3 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 42,9 trillion so'mga yetdi. Bu davlatning maxsus dasturlarni qo'llab-quvvatlash va investitsion faoliyatni kengaytirishga qaratilgan siyosatini aks ettiradi. Shu bilan birga, ushbu jamg'armalardan ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash uchun nazorat mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari 2022-yildagi 7,4 trillion so'mdan 2023-yilda 16,2 trillion so'mga ko'tarildi. Bu mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirishga yo'naltirilgan strategik tashabbuslarning moliyaviy ifodasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu mablag'larning oqilona boshqarilishi qat'iy nazoratni talab etadi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari esa aksincha, 2022-yildagi 33,6 trillion so'mdan 2023-yilda 30,5 trillion so'mga kamaydi. Bu moliyaviy resurslardan samarali foydalanish borasidagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi, ammo ushbu jarayonning barqarorligi doimiy monitoringni talab qiladi.

Shuningdek, tashqi qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan davlat dasturlari xarajatlari 2022-yildagi 5,7 trillion so'mdan 2023-yilda 9,3 trillion so'mga oshdi. Bu tashqi qarzga qaramlik darajasining yuqorilashidan dalolat beradi. Shu sababli, kelgusida davlat dasturlarini moliyalashtirishda ichki manbalar ulushini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.



Umuman olganda, 2022–2023 yillarda davlat byudjeti va moliyaviy jamg'armalar hajmining o'sishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq ayrim moliyaviy manbalar bo'yicha tashqi qarzga qaramlikning kuchayishi moliyaviy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin. Shu bois byudjet mablag'lari va jamg'armalardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda samaradorlikni oshirish mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020 — 2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 506-son Qarori.
2. Malikov T.S., Xaydarov N.X., Davlat budjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007-y.
3. B.K.Hamdamiyov, A.A.Ostonokulov. O'quv qo'llanma. "Budjet nazorati". "Iqtisod-Moliya", 2018-y. 7-b.
4. B.Nurmuhammedova. Davlat budjeti. Darslik. T.: "Iqtisod-moliya"-2019-y.
5. Robert D. Lee Jr., Ronald W. Johnson. Public Budgeting Systems. 10th edition. USA, 2020-y.
6. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(2), 84-88.
7. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 1.
8. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(05), 30-37.
9. Жуманиязов, И. Т. (2016). Основные задачи Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. *Наука, образование и культура*, (7 (10)), 27-28.



10. Жуманиязов, И. Т. (2016). Направления использования средств Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан. *Economics*, (7 (16)), 28-29.
11. Jumaniyazov, I. T. (2022). O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. *Science and Education*, 3(5), 1637-1645.
12. Inomjon Turaevich Jumaniyazov, & Bexruz Hazratov (2022). *Foreign experience in the development of special economic zones in Uzbekistan. Science and Education*, 3 (5), 1628-1636.
13. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партисипатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. *Science and Education*, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
14. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). *Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education*, 4(2), 1509–1516.
15. Jumaniyazov, I. T. (2019). *Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).*
16. Jumaniyazov, I., & To'laganova, F. (2023). Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi. *Science and Education*, 4(6), 836–847. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6095>
17. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi “Tashabbusli byudjet” turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi. *Science and Education*, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>
18. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жахонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
19. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and*



- Education, 4(6), 881–887. Retrieved from
<https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
20. Inomjon, J., & Sarvar, a. (2023). Suveren fondlar faoliyati va ularning moliyaviy mablag‘larini samarali foydalanishning xorij tajribasi. pedagogs jurnali, 35(4), 102-108.
21. The social importance of sovereign wealth funds. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1028-1034.
22. Targeted planning of budget expenditures and impact on social policy. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1442-1444.
23. Iqtisodiyotni rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1418-1422.
24. O‘zbekiston respublikasida davlat xaridini tashkil etish va uni takomillashtirish. (2024). Ustozlar uchun, 1(4), 1428-1432.
25. <http://www.mf.uz> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
26. <http://www.soliq.uz> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti.